

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



2024-yil

07. 00. 07 – ETNOGRAFIYA, ETNOLOGIYA VA ANTROPOLOGIYA
IXTISOSLIGI BO‘YICHA TAYANCH DOKTORANTURAGA
“MUTAXASSISLIK” FANIDAN QABUL IMTIHONI DASTURI

Dastur Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashida ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan (2024-yil 5-oktabrdagi 2 - sonli bayonnomasi).

Tuzuvchilar:

- A. X. Doniyorov – tarix fanlari doktori, professor
- B. A. Odilov – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Taqrizchilar:

- A. A. Ashirov – tarix fanlari doktori, professor
- I. M. Xaydarov – tarix fanlari doktori DSc, dosten

KIRISH

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini Ta’lim va fan sohasini rivojlantirishga bag‘ishlangan bandlarida Oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta’lim sifatini oshirish, 2026-yilga qadar 10 ta salohiyatlari oliy ta’lim muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash, Qariyb 100 ming o‘rinli talabalar turar joylarini barpo etish, 2026-yilgacha nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari sonini kamida 50 taga yetkazish, “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygohlarga o‘qishga yuborish ko‘lamini 2 baravarga oshirish, bunda yoshlarning 50 foizini texnik, aniq fanlar va IT sohalariga o‘qitish, Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalari va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish vazifalariga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu e’tiroflardan anglash mumkinki, hozirgi sharoitda ilmiy kadrlar tayyorlash jarayonini jadal rivojlantirish va sifatini oshirish, iqtidorli yoshlarni ilm-fanga keng jalb qilish, oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish va ulardan respublikaning innovation rivojlanishida samarali foydalanish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda.

XX asrning so‘ngi yillariga kelib, O‘zbekistonda tarixni yoritish bilan bog‘liq muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Ushbu jarayonlarning negizi o‘tmish-tarixni o‘rganishda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usi, ajdodlarimizning shonli yo‘li va boy ma’naviy merosini xaqqoniy yoritish masalasi bilan bog‘liq rivojlangan.

Hozirgi paytda yurtimizda yashayotgan har bir fuqaro o‘zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug‘ ajdodlarimizning ulkan merosini chuqurroq o‘zlashtirish, shitob bilan o‘zgarayotgan hayot voqe‘ligiga ongli qarab, mustaqil fikrashi va diyorimizdagи barcha o‘zgarishlarga daxldorlik tuyg‘usi bilan yashashi zarurligi uchun qulay sharoit paydo bo‘ldi. O‘zbekistonda yuz berayotgan keng qamrovli siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy o‘zgarishlar tarixni chuqur va xolisona tarzda hamda teran tafakkur asosida ilmiy tadqiq etishni taqozo etmoqda.

Darhaqiqat, tarixchilar zimmasida turgan ustivor vazifalardan biri o‘zbek xalqining kelib chiqishi (etnogenezi) va milliy davlatchiligidan tarixini xolisona tadqiq etishda etnologiya – elshunoslik (xalqshunoslik) fani ham salmoqli o‘ringa egadir. Etnografiya, etnologiya va antropologiya sohalari ko‘p qirrali xususiyatga ega bo‘lib, uning eng asosiy tadqiqot ob’ekti yer yuzidagi barcha etnoslar – urug‘-qabilalar, elatlar, xalqlar va millatlar hisoblanadi.

Etnologiya jahon xalqlarining etnogenezi, o‘ziga xos moddiy va ma’naviy madaniyati, antropologik va lingvistik belgilari, an'anaviy xo‘jaligi, marosimlari va maishiy turmush tarzlarini o‘rganish jarayonida har bir etnosning jahon sivilizasiyasida o‘z o‘rniga ega ekanligi haqidagi ma'lumotlarni beradi. Shu boisdan ham ethnografiya bo‘yicha o‘quv mashhg‘ulotlari yer yuzidagi ma'lum bir mintaqada yashovchi xalqlarning tabiiy-geografik joylashuvi, etnogenezi va etnik tarixi, antropologik (irqiy) va etnolingvistik (lisoniy) xususiyatlari, moddiy madaniyati, maishiy turmush tarzi, ijtimoiy hayoti va oila-nikoh munosabatlari, marosimlari va urf-odatlari, ma’naviy hayoti va diniy e’tiqodlarini o‘zida mujassamlashtiruvchi eng ustuvor masalalar tizimidan tarkib topgan.

Jahon hamjamiatida munosib o‘rin egallagan O‘zbekistonning bo‘lajak yosh tarixchilarini, jahondagi turli etnoslar, jumladan, o‘zbek xalqi, Markaziy Osiyo va Sharq mamlakatlaridagi boshqa xalqlar etnogenezi va etnik tarixi, xo‘jaligi, moddiy va

ma'naviy madaniyati bilan yaqindan tanishtirishda etnologiya eng asosiy o'rnlardan birini egallaydigan fanlardan hisoblanadi.

Etnologiya fani yosh avlodni Vatanga sadoqatli, e'tiqodli va yetuk darajadagi komil inson qilib tarbiyalashda muhim vositalardan biri hisoblanadi. Yoshlar jahon, Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbeklarning etnogenezi, etnik tarixi, an'anaviy turmush tarzi, umuman, milliy qadriyatlarini etnografiya fani orqali puxta egallaydilar.

Ta'kidlash joizki, sharqshunoslik sohasida xalqaro standartlarga muvofiq kompleks bilimlarga ega malakali kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash, ilm-fanni jadal rivojlantirish, professor-o'qituvchilarning salohiyati, pedagogik mahoratini uzlucksiz oshirib borish, talaba-yoshlarni sharqona qadriyatlar asosida tarbiyalashni takomillashtirish hukumatimiz tomonidan qo'llab quvvatlandi va Sharq mamlakatlarining tillari, tarixi, madaniyati, moddiy va ma'naviy merosi, iqtisodiyoti, siyosati, xalqaro maydondagi nufuzi, ularning zamonaviy antropologiya va etnologiyasi, tarjimashunoslik, shuningdek, turizm va gid hamrohligi sohalarida zamonaviy bilimlarni mukammal egallagan, mehnat bozori uchun raqobatbardosh bo'lgan kadrlarni tayyorlash masalasi ustivor etib belgilandi.

Haqiqatdan ham bugungi tez sur'atlari globallashuv jarayonida jahon xalqlari, xususan, Sharq mamlakatlari bilan o'zaro aloqalarni samarali rivojlantirish muammosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Buning uchun har bir xalqning tarixi, madaniyati, urf-odat va an'analariga oid ilmiy bilimlarni rivojlantirish davr talabidir. Ushbu xalqlarning tarixan rivojlangan o'z o'tmishi, qadriyatları, urf-odat va an'anaları asosida shakllangan identikligiga oid ilmiy bilimlarni shakllantirishda albatta, etnolog mutaxassislarining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi.

Qolaversa, Sharq mamlakatlarining rivojlanishi omillari, ulardagi zamonaviy ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlarlar, sharq madaniyati va merosi, qadimiylar yodgorliklari va qo'lyozmalarini tadqiq etishda turli xalqlarning tilini mukammal biluvchi, zamonaviy bilimlarga ega etnolog mutaxassislarini yetishtirish ayni damda dolzarbdir. Zamonaviy bilimlarga ega etnolog mutaxassislar tomonidan bajariladigan tadqiqotlar va ularning natijalarini amaliyotda qo'llanishi kelgusi ijtimoiy-siyosiy va madaniy rivojlanish jarayonlariga o'zini ijobiy ta'sirini ko'rsatishi shubhasiz.

IX asrdan XV asr oxirlarigacha Markaziy Osiyo arab va fors tillarida yaratilgan va hozirgi kunda O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan 40 mingga yaqin nodir qo'lyozmalarning orasida etnografik ma'lumotlarga ega asarlar ham mayjud bo'lib, ushbu manbalar zamonaviy bilimlarga ega etnolog mutaxassislar tomonidan o'rganilishi tariximizning kam o'rganilgan yoki o'rganilmay qolgan jihatlarini yoritishga xizmat qiladi. Aytish joizki, bugungi kunda, avvalo respublikamizdag'i qo'yozmalar fondlarida saqlanayotgan boy ma'naviy mersimizning etnologik tahlilini amalga oshira oladigan ham sharq, ham g'arb tilarini mukammal biladigan mutaxassislarining yetishmayotganligi yaqqol sezilmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar markazida inson, uning farovonligi masalasi yetakchi o'rindadir. Sharqshunos-etnolog mutaxassislarini tomonidan Sharq mamlakatlarining ilg'or tajribalari, xususan, qishloq xo'jaligi sohasida erishgan yutuqlarining rivojlanish omillari, inqirozli davri va uning sabablari etnologik va etnososiologik tadqiqotlar asosida o'rganilishi, jahon xalqlari tomonidan ishlab

chiqarish jarayonida qo'llanilayotgan, sinalgan tajribalarning (ayniqsa, oziq-ovqat havfsizligini ta'minlash va ekologik muammolarni oldini oluvchi) mamlakatimizdagi agrar sohani rivojlantirishga safarbar etish imkonи oshadi.

Yuqorida ko'rsatilgan vazifalarning dolzarbligi va ularning amalga oshirish usullaridan kelib chiqib, zamonaviy va qadimgi tillarni o'zlashtirgan malakali sharqshunos-etnolog mutaxassislarini tayyorlash imkoniyati aynan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetidagina mavjud, degan xulosaga kelish mumkin.

Biz talqin etayotgan mintaqa tarixshunosligiga kelsak, u hali yetarli o'rganilgan emas. Undagi yo'nalishlar, maktablar hali yetarli talqin etilmagan.

Dasturning maqsadi va vazifalari

"07.00.07 - Etnografiya, etnologiya va antropologiya" mutaxassisligi bo'yicha tayyorlanadigan bo'lajak kadrlarning yuqorida bayon etilgan masalalar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini aniqlash va tegishli tarzda baholash ushbu dasturning maqsadini belgilaydi. Ushbu dastur va uning asosida tuzilgan savollar aynan shu vazifaga qaratilgandir. Bu maqsad va vazifalarni bajarish uchun bo'lg'usi tadqiqotchi va oliy malakali pedagoglar tarixiy manbashunoslikni va tarixshunoslik asoslarini mukammal bilishlari lozim.

Asosiy qism

"07.00.07 - Etnografiya, etnologiya va antropologiya" mutaxassisligi yuzasidan tayanch doktoranturaga kirish imtihoni savollarining mazmuni kafedra o'quv rejasidagi bakalavriatura va magistratura bosqichida olingan, hamda Respublikaning boshqa OO'M laridagi ushbu soha bo'yicha ta'lim beruvchi yo'nalish va mutaxassislik diplomiga ega bo'lgan shaxslarga mo'ljallangan. Dastur va savollar Markazi Osiyo xalqlari etnologiyasining zamonaviy muammolari, Markazi Osiyo xalqlarining kelib chiqishi tarxi va etnografiyasining hozirgi muammolari, antropologik tadqiqot usullari va zamonaviy muammolari individual ilmiy-tadqiqot va eksperimental ish va boshqa o'quv fanlari yuzasidan tayyorlangan.

"07.00.07 - Etnografiya, etnologiya va antropologiya" mutaxassisligi yuzasidan kirish imtihoni bo'yicha ko'rsatma va yo'llanmalar

Kirish imtihonlari savollarini raqamli variantlar shaklida, har bir variantda uchtadan savol kiritib tuzilgan. Savollarning birinchisi, "Markazi Osiyo xalqlari etnologiyasi"dan, ikkinchisi "Markazi Osiyo xalqlari etnografiyasidan"dan, uchinchisi "Antropologik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari" sohalari bo'yicha qo'yilgan.

Savollarni tuzishda davriylik, uzluksizlik va tarixiy uzviylik tamoyillariga asoslanilgan.

Kirish imtihonlari oldidan kafedra mutaxassislik bo'yicha savollarni ilmiy bo'limga topshiradi va elektron nusxa hamda qog'oz ko'chirmasi orqali tayanch doktoranturaga talabgorlarni tanishtirish imkoniyati yaratiladi. Jumladan:

I Blok

Markazi Osiyo xalqlari etnografiyasi

1. Markazi Osiyo xalqlari etnografiyasi bo'yicha eng asosiy manbalar va adabiyotlar
2. Qoraqalpoq xalqi etnografiyasiga oid eng muhim manbalar.
3. Markazi Osiyo xalqlarining geografik tasnifi
4. IX-XII asrlardagi manbalarda Movarounnahr xalqlari tasnifi

5. XIX asrning oxiri – XX asr boshlaridagi tarixiy-etnografik asarlarda Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi
6. Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasini o‘rganishda Xitoy manbalarining o‘rnini
7. Tojik xalqi an'anaviy dehqonchiligi
8. Qozoq xalqi an'anaviy kiyim-kechaklari
9. Qirg‘iz xalqi to‘y va dafn marosimlari
10. Uyg‘ur xalqi an'anaviy xunarmandchiligi va taomlari
11. O‘zbek xalqi an'anaviy dehqonchiligi tarmoqlari
12. Turkman xalqi an'anaviy chorvachiligi
13. Markaziy Osiyoda tarixiy etnografik mintaqalar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari
14. XX asrda o‘zbek xalqi etnografiyasining rivojlanish bosqichlari
15. Etnografik dala tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi

II Blok

Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi

1. O‘zbek xalqi etnologiyasining zamonaviy muammolari
2. Etnologiya metodlari
3. Etnologiya: kecha, bugun, ertaga
4. Etnologiya doirasining kengayishi
5. Etnos nazariyasi
6. O‘zbek xalqi etnik tarixi va etnografiyasining xorijiy sharqshunoslar tomonidan o‘rganilishi
7. Akademik K. Shoniyofov asarlaridan O‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi masalalarining yoritilishi
8. Akademik A. Asqarov asarlarida o‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi masalalari
9. Uyg‘ur xalqi etnogenezi va etnik tarixi masalalari
10. Tojik xalqi etnogenezi va etnik tarixi masalalari
11. Dungan xalqi etnogenezi va etnik tarixi masalalari
12. Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasining zamonaviy muammolari
13. “Xo‘jalik madaniy tip”lar ilmiy konsepsiysi
14. O‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi masalalari
15. Turkman xalqi etnogenezi va etnik tarixi masalalari
16. Qirg‘iz xalqi etnogenezi va etnik tarixi masalalari

III blok

Antropologik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari

1. Antropologiya nima va u nimani o‘rganadi
2. Antropologiyaning predmeti va tadqiqot usullari hamda tarixi
3. Antropologiyani nega inson uchun oyna deyishadi
4. Insoniyatning qadimiyl odatlari (turli etnoslar misolida)
5. Rasa: zamonaviy mif
6. Til tuhfasi
7. Madaniyatdagi shaxs (individium va guruh)
8. Antropologiyaning zamonaviy metodlari

9. Ijtimoiy antropologiyaning tadqiqot ob'ekti
10. Madaniy antropologiya xaqida tushuncha bering.
11. Antropologiya va boshqa ilmiy sohalar xaqidagi fikringiz
12. Arxeologik antropologiya
13. Biologik yeki jismoniy antropologiya
14. Lingvistik antropologiya
15. Antropologiya va tarix.
16. Fransiya antropologiya maktabi
17. AQSh antropologiya maktabi tarixi
18. G'arb antropologiyasi yo'nalishlari
19. Angliya antropologiya maktabi tarixi
20. Markaziy Osiyoda antropologiya fani

Kirish imtihonlari natijalarini baholash mezonlari

Imtihonni baholash uchun maksimal baho – 100 ball etib belgilanadi.

JAMI 4 ta savolga: 100 ball, shundan:

- | | |
|---------------------------|------------|
| 1-savolga javob: maksimal | – 25ball; |
| 2-savolga javob: maksimal | – 25 ball; |
| 3-savolga javob: maksimal | – 25 ball; |
| 4-savolga javob: maksimal | – 25 ball. |

Har bir savol bo'yicha javoblarni baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

- nazariy va amaliy bog'liqlikda yoritilgan;
- mazmunni yoritishda mustaqil ilmiy mushohada;
- nom va ilmiy atamalarni bilish darajasi;
- ilmiy mushohada yuritish iqtidori to'la ko'rinsa;

–keltirilgan faktlar hozirgi davrdagi jarayonlar, o'zgarishlar bilan o'zaro aloqadorlikda ochib berilgan, chuqur ilmiy tahlil etilgan hamda xronologik jihatdan to'g'ri yoritilgan;

– o'z fikrini tizimli mustaqil tahlil qilgan, erkin va mustaqil ifoda eta olgan;
– fikr aniq va izchil ifodalangan, barcha savollar mutlaqo to'liq yoritilgan va bunda tegishli ilmiy adabiyotlarga tayanilgan;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning asarlarida bayon qilingan tamoyillar va xulosalarga har tomonlama chuqur asoslangan javoblarga a'lo baho qo'yiladi.

Barcha savollarga nisbatan to'liq javob berilgan, fikr izchil ifodalangan, lekin bunda tegishli ilmiy va uslubiy adabiyotlarga kamroq e'tibor berilgan bo'lsa, *yaxshi* baho qo'yiladi.

Barcha savollarga qisman javob bera olgan va ma'lum darajada ilmiy, o'quv-uslubiy adabiyotlaridan foydalangan bo'lsa, *qoniqarli* baho qo'yiladi.

Fikr aniq ifoda etilmagan, biron ta ham savolga qisman bo'lsada to'g'ri javob berilmagan, tegishli ilmiy, o'quv-uslubiy adabiyotlardan mutlaqo foydalanimagan javoblar uchun *qoniqarsiz* baho qo'yiladi.

Tavsiya qilingan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston", 2016.- 56 b.

2. Mirziyov Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - T.: “O‘zbekiston”, 2018. - 48 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. - 488 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017 yil 24 maydagи “Qadimgi yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2995-sonli qarori.
6. Ashirov A. Etnologiya. –T., 2014.
7. Этнология. (Под ред. Миськовой Е.В, Мехедова Н.А, Пименова В.В)-М., Изд-во «Культура» 2005.
8. Doniyorov A.X., Bo‘riev O., Ashirov A.A. Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi, etnogenezi va etnik tarixi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: TDSHI, 2014.
9. Антропология и этнология учебник для бакалавриата и магистир/под.ред. В.А. Тишкова. М. 2018. – 364 с.
10. Поршнева О.С. Междисциплинарные методы в историко-антропологических исследованиях: Учебник пособие. - Екатеринбург: Изд-во. Урал, ун-та, 2005. - 136 с.
11. Этнология. Под. ред. Е. В. Миськовой, Н.Л. Пикедева. Пименова В.В. М. 2005.
12. Лурье СВ. Историческая этнология. М. 1998.
13. Этнография. Под. Ред. Ю. В. Бромлея, Г. Е. Маркова М. 1982.
14. Итс Р. Ф. Введение в этнографию. Л. 1991.
15. Чебоксаров Н .Н. Чебоксарова И. А. Народы, Расы, Культуры. М. 1985.
16. Сервье Жан. Этнология. М. 2004.
17. К.Леви-Стросс.Структурная антропология. М. 1986
- 18.Kottak.F .Madaniy antropologiya.qo‘lyozma.T.2004.
- 19.Radkliff-Braun.A.Ijtimoiy antropologiya metodi. T.2004. qo‘lyozma.
20. Миклуха-Маклай Собрание научных трудов. М. 1990-1993.
21. Этнология. Учебник МГУ. М.2005.

Qo‘srimcha adabiyotlar

1. I. A. Karimov. Asarlar. 1-19-jildlar. T. ,O‘zbekiston. 1996-2008.
2. Jabborov Iso. Etnografiya asoslari. Toshkent. 1981
3. Jabborov Iso. Etnografiya va jahoning etnik qiyofasi. -T., 1982
4. Jabborov Iso. O‘zbek xalqi etnografiyasi. Toshkent. 1994
5. Jabborov Iso. Antik madaniyat va ma’naviyat xazinasi. –T., 1999
6. Jabborov Iso. O‘zbeklar. Turmush tarzi va madaniyati. Toshkent.2003
7. Jabborov Iso. Jabborov S. Jahon dinlari tarixi. Toshkent. 2002
8. Токарев С.А. Основы этнографии. М. 1986.
9. Народы Африки. Под.ред.Э.Г. Львовой М. 1986.
10. Народы Мира. Серия. М. 1954- 1966.

